

SINTAKTIK OMONIMLARNI TASNIFLASH TAMOYILLARI XUSUSIDA

Nasiba Sayidmahamadovna SAYIDIRAHIMOVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrası
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

О ПРИНЦИПАХ КЛАССИФИКАЦИИ СИНТАКСИЧЕСКИХ ОМОНИМОВ

Насиба Сайидмахамадовна САЙИДРАХИМОВА

Кандидат филологических наук, доцент
Кафедра узбекского языка и классической восточной литературы
Международная исламская академия Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

ON THE PRINCIPLES OF THE CLASSIFICATION OF SYNTACTICAL HOMONYMS

Nasiba Sayidmahamadovna SAYIDIRAHIMOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Department of Uzbek Language and Classical Oriental Literature
International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan sayidirahimova@navoiy-uni.uz

UDC (UO'K, УДК): 811.512.133-11

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sayidirahimova N.S. Sintaktik omonimlarni tasniflash tamoyillari xususida//O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 7-17

<https://doi.org/10.36078/1683264135>

Received: February 11, 2023

Accepted: April 17, 2023

Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Annotatsiya. Tildagi omonim va omonimiya hodisasi shu kungacha faqat tilning leksik va morfologik sathi obyekt sifatidagina o'rganilib kelgani ma'lum. Biroq so'nggi yillarga kelib, tilshunoslikda asosida ikki tomonlama sintaktik bog'liqlik, ya'ni ayni damda, so'z va so'z birikmalari bir qancha mazmun — dominantaga ega bo'lgan konstruksiyalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur holat omonimiya hodisasini o'rganishning doirasi ancha kengaygani, ya'ni u tilning barcha sathlarida kuzatiluvchi ko'pqirrali lingvistik hodisa sifatida tahlilga tortilishi lozimligi bilan bog'liq. Kundalik nutqiy muloqotda so'zlovchi doimiy ravishda o'zi anglamagan holda turli noaniq konstruksiyalarni yaratadi, nutqida qo'llaydi va ayni damda, tafakkurda tahlil qiladi. So'zlovchi tomonidan og'zaki va yozma nutq ifodasida pragmatik mazmun (presuppozitsiya)ni nazarda tutgan holda qo'llanilgan bunday sintaktik noaniqliklar retsipiyent uchun ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, tabiiy. Sintaktik bog'lanishning bunday nostandart ko'rinishi struktur va sintaktik omonimiya bilan uzviy aloqadorligidan kelib chiqadi. Shu sababli struktur omonimiya tushunchasi ostida biz bir qancha propozitsiyaga ega bo'lgan nutqiy zanjirni tushunamiz. Hozirga kelib, sintaktik noaniqlik (xilma xillik)larni aniqlash zamonaviy nazariy va amaliy tilshunoslikning eng muhim va asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, mazkur maqolada, asosiy e'tibor, sintaktik omonimlarni o'rganish, ularni belgilash va tasniflash masalasiga qaratiladi. Shuningdek, unda sintonimlarni tasniflashda ma'lum darajada mezon bo'luvchi tahlil tamoyillari tavsiya etiladi hamda sintaktik omonimlarning tasnifi nutqiy interpretatsiya jarayonidagi misollar tahlili orqali asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: sintonim; nutqiy interpretatsiya; sintaktik noaniqlik; sintaktik xilma-xillik; propozitsiya; retsipiyent; struktur omonimiyasi; sintaktik omonimlarni tasnif qilish prinsiplari.

Аннотация. Хорошо известно, что явление омонимов и омонимии в языке изучено только как объект лексико-морфологического уровня языка. Однако в последние годы в языкознании особое внимание уделяется изучению конструкций, основанных на двусторонней синтаксической связи, то есть слов и словосочетаний, которые одновременно имеют несколько доминант. Такое положение связано с тем, что расширились рамки изучения явления омонимии, то есть ее следует анализировать как многогранное языковое явление, наблюдаемое на всех уровнях языка. В повседневном речевом общении, сам того не осознавая, человек постоянно создает различные двусмысленные конструкции, использует их в своей речи и одновременно анализирует в своем мышлении. Естественно, что синтаксические двусмысленности — неоднозначности, используемые говорящим при выражении устной и письменной речи, предполагающие прагматическое содержание (пресуппозицию), вызывают у реципиента много затруднений. Такая нестандартная форма синтаксической связи возникает из-за ее неразрывной связи со структурно-синтаксической омонимией. Под понятием структурной омонимии мы понимаем речевую цепочку, имеющую несколько пропозиций. В настоящее время выявление синтаксической неоднозначности рассматривается как одна из важнейших и фундаментальных проблем современной теоретической и прикладной лингвистики. Поэтому в данной статье особое внимание уделяется изучению синтаксических омонимов, их определению и классификации. Также нами рекомендуются принципы анализа, являющиеся в определенной степени критериями классификации синтонимов; а классификация синтаксических омонимов обосновывается через анализ примеров в процессе интерпретации речи.

Ключевые слова: синтонимы; интерпретация речи; синтаксическая многозначность; синтаксическая разновидность; пропозиция; реципиент; структурная омонимия; принципы классификации синтаксических омонимов.

Abstract. It is well known that the phenomenon of homonyms and homonymy in a language has been studied only as an object of the lexical-morphological level of the language. However, in recent years, in linguistics, special attention has been paid to studying the structures based on two-way syntactic communication, that is, words and phrases simultaneously having several dominants. This situation is due to the fact that the scope of studying the phenomenon of homonymy has expanded. Hence, it should be analyzed as a multifaceted linguistic phenomenon observed at all levels of the language. In speech communication, a person, without realizing it, constantly creates various multi-valued constructions, uses them in his speech and at the same time analyzes them in his thinking. Naturally, the syntactic ambiguities used by the speaker when expressing oral and written speech, suggesting a pragmatic content (presupposition), cause many difficulties for the recipient. Such a non-standard form of syntactic connection arises because of its inseparable connection with structural-syntactic homonymy. Under the concept of structural homonymy, we mean a speech chain that has several propositions. At present, the identification of syntactic

ambiguity is considered one of the fundamental problems of modern theoretical and applied linguistics. The following study pays special attention to the study of syntactic homonyms, their definition and classification. It also recommends the principles of analysis, which, to a certain extent, are criteria for the classification of synonyms; and the classification of syntactic homonyms is substantiated through the analysis of examples in the process of interpreting speech.

Keywords: syntonyms; speech interpretation; syntactic ambiguity; syntactic variety; proposition; recipient; structural homonymy; principles of classification of syntactic homonyms.

Kirish. Xilma-xillik, uzoq yillar davomida doimiy rivojlanib, takomillashib kelayotgan istalgan tilning tabiatiga xos muhim xususiyat sanaladi. Shu bois, tilshunos olimlar xilma-xillik yoki noaniqlik xususiyatiga ega bo‘lmagan biron tilni topish mumkin emas, deya ishonch bilan ayta oladilar. L. V. Malaxovskiyning ta’kidlashicha, “...agar, mobodo, omonimlardan holi bo‘lgan til aniqlanganda ham yoki qaysidir jamoa muloqot vositasi sifatida omonimlardan butkul holi bo‘lgan qandaydir sun’iy til ishlab chiqqanda va undan foydalanganda ham, ushbu tilning tabiiy rivojlanishi natijasida (masalan, esperanto tilida ham kuzatilgani singari) o‘sha tilda ham so‘zsiz omonimlar yuzaga kelgan bo‘lardi”, deya ta’kidlaydi. Shuningdek, olim “...omonimiya muayyan tilning asrlar davomidagi uzluksiz tadrijiy rivojlanish qonuniyatining natijasini o‘zida namoyon etuvchi, mutloq lingvistik universalisa”, deb hisoblaydi (1, 3).

Istalgan tilda omonimiya hodisasini o‘rganishda omonimlar tasnifi masalasi alohida o‘rin tutadi. Sababi shu kungacha o‘zbek va jahon tilshunosligida bu borada olib borilgan tadqiqotlarda omonimlar tasnifi bo‘yicha turlicha tasniflarning berilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Tilda bu boradagi tasniflarning ko‘pligi tilshunoslarning mazkur til hodisasiga qaysi aspektdan yondashuvidan kelib chiqqanligi bois, shu kunga qadar omonimlar tushunchasi va tasnifi bo‘yicha tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda umum tomonidan qabul qilingan yakdil tasnif mavjud emas.

Hozirgi kunga kelib, omonimiya tilning barcha bosqich — aspektlarida kuzatiluvchi hodisadir, degan ta’kidlar ko‘p kuzatilmoqda. Yu. S. Maslov bu borada shunday yozadi: “Nazariy tilshunoslikda amaliy leksikologiyaga bag‘ishlangan ishlardan farqli ravishda omonim va omonimiya tushunchasini keng ma’noda tushunish maqsadga muvofiq” (2, 198). Shu bois, biz omonimiya tushunchasi ostida quyi bosqichda ikki (ba’zan bir necha) so‘zlarning, boshqa tomondan esa morfema va morfem birikmalar, yuqori sintaktik bosqichda so‘z birikmalari va gaplarning talaffuzda teng kelish hodisasi, deya belgilaymiz (6). Sh. Balli (4), S. Ulman (5) va boshqa ko‘plab tilshunoslar ham mazkur hodisaga bag‘ishlangan ishlarida turli tillarda omonimiya hodisasi tilshunoslikning turli sathlari, xususan, morfologik sathdan tortib sintaktik sathgacha amal qilishi xususida gapirib o‘tganlar.

Asosiy qism. Omonimiya faqat tilning leksik sathida amal qiluvchi hodisa emas, degan qarashlarga qaramay, uning grammatik va sintaktik sathda ham keng kuzatiluvchi ko‘p qirrali hodisa sifatidagi imkoniyati tilda deyarli o‘rganilmagan. Sababi shu kungacha tilshunoslarni faqat leksik omonimiya: uning yuzaga kelishi va usullari, omonimlarning ko‘rinishlari, ularning ko‘pma’noli so‘zlardan farqi va boshqalar qiziqtirib keldi. Sintaktik noaniqlik masalasiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar esa, o‘tgan asrning 60-yillarigacha an’anaviy tilshunoslikda umuman kuzatilmaydi. Aksariyat tadqiqot ishlarida omonimiya sintaktik sathlarda qaysidir ma’noda o‘rganilgan bo‘lsa ham, ularda asosiy e’tibor sintaktik konstruksiyalar o‘rtasidagi omonimiya hodisasini o‘rganishga qaratildi. Shuningdek, omonimiyaning matndagi stilistik imkoniyatlari qisman bo‘lsa-da, o‘rganilganligini ham kuzatish mumkin. Tilshunos L. N. Iordanskaya sintaktik omonimiyaga bunday yondashuvni ikki holat bilan izohlaydi: “Birinchidan, sintaktik noaniqlik leksik yoki morfologik omonimiyaga nisbatan deyarli sezilarli emas; ikkinchidan, tilshunoslikda “gaplarning sintaktik strukturalari o‘rtasida omonimiya hosil bo‘lishining usullari haqidagi masalasi” aniq belgilanmagan va kun tartibiga qo‘yilmagan” (7, 9). Bundan tashqari, nazarimizda, o‘zida sintaktik-stilistik tadqiqotlar predmetini namoyon etuvchi sintaktik omonimiya hodisasi ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan, avvalo, leksik-grammatik sath, so‘ng stilistika muammosi sifatida tushunilgani bois ham tilshunos olimlar diqqat markazidan tushirib qoldirildi.

Shuni alohida ta’qidlash joizki, XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib, sintaktik omonimiya muammosi masalasiga bo‘lgan e’tibor, avvalo, aniq fanlar va texnika rivoji bilan qator yutuqlarning qo‘lga kiritilishi, buning natijasida esa tilshunoslikda yangi tadqiqot obyektlarining yuzaga kelishi bilan tobora ortib bordi. Bunday obyektlardan biri mashina tarjimasida sintaktik noaniqliklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Sababi matnni avtomatik ravishda qayta ishlashda, to‘g‘rirog‘i, bir tildan boshqa tilga o‘girishda noaniqlik, boshqacha aytganda, mazmunan sintaktik noaniq gaplar muayyan qiyinchiliklarni tug‘dirishi, tabiiy. Sababi qat’iy bir xil strukturadagi sintonimlar, ya’ni gaplar omonimiyasi muayyan qiyinchiliklarni tug‘dirishi aniq holat. (8)

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, sintaktik sathdagi omonimiya, ya’ni noaniqliklarni tadqiq etishning dolzarbligi mazkur hodisaning shu kunga qadar o‘rganilmaganligi hamda sintaktik omonimlar tasnifida umumiy yondashuvning mavjud emasligi, shuningdek, noaniq sintaktik konstruksiyalardagi mazmunni adresat maqsadga muvofiq, to‘g‘ri anglashi hamda kommunikativ jarayonni optimallashtirishda lingvistik interpretatsiyaning muhimligi bilan bog‘liq.

Shu bois, mazkur maqolada sintaktik noaniqliklar — sintonimlarning mohiyatini belgilash, sintonim konstruksiyalarning turlarini ko‘rib chiqish va sintaktik omonimlar tasnifi prinsiplarini ko‘rsatish maqsad qilingan.

Biz omonimiya haqida gapriganimizda, til birliklarining, eng avvalo, tashqi idiyentliligi (o'xshashligi), biroq semantik jihatdan mazmun xilma — xilligini nazarda tutamiz. Shu sababli, sintaktik omonimiya asosida bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha dominantaga bo'ysunuvchi so'z yoki so'z birikmasiga mazmunan tobe bo'lgan ikki tomonlama bog'liqliq yotadi (8).

Masalan,

Tadqiqotchini ilm-fanga qo'shgan hissalar uchun ko'krak nishoni bilan mukofotladilar gapida “qo'shgan hissalar” birikmasi gapning ikki: 1) tadqiqotchining ilm-fanga... va 2) ...ko'krak nishoni bilan komponentiga birikadi.

Shuningdek, *Xatolar ustida qayta ishlash kerak* gapida ikki xil mazmun: **1. Yozilgan diktant xatolari ustida qayta ishlash. 2. Rahbarlar yoki xodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar ustida qayta ishlash** mazmuni anglashiladi.

Yoki *Moliya inspeksiyasi xatolardan foydalanishi mumkin*. Mazkur gapda **1) Moliya inspeksiyasi xatolari birikmasi ostida** (“*moliya inspeksiyasi xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar*”) va **2) xatolardan foydalanishi** birikmasi ostida (mazkur holatda gap “*qaysidir iqtisodiy subyektlar yo'l qo'rgan xatolardan Moliya inspeksiyasi foyda olishi mumkinligi*” haqidagi mazmun anglashilishi mumkin).

Biz yuqorida keltirilgan birinchi gapdagi noaniqlikni **struktur omonimiya** hodisasi deb nomlaymiz. Mazkur xolatdagi sintaktik noaniqlikning o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda nutq zanjiridagi qaysidir so'z istalgan bir necha dominantaga tobe bo'lishi mumkinligi bois, gapning ifoda mazmuni o'zgarmaydi. Bunday konstruksiyalar, bizningcha, **sintaktik omonimlar** sanaladi. Sintaktik noaniqlikning bunday ko'rinishi gaplarda ko'ringani singari, so'z birikmalarida ham kuzatiladi, shu sababli, bu o'rinda, sintaktik omonimlarni ikkiga, ya'ni: **1) omonim — nominativlar; 2) omonim — predikativlar** sifatida ajratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Biz tomondan bunday tasnifda **omonim — nominativlarga**, o'zida turli tashkilot nomlarini ifodalovchi turg'un birikmalar, masalan:

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi qoshidagi nashriyot (Alisher Navoiy nomidagi nashriyotmi yoki Alisher Navoiy nomidagi kutubxonami?)

Yoki *Yangi asr avlodi nashriyoti (Yangi asr nashriyot nomimi yoki Yangi asr nashriyotimi?)*

Davlat xavfsizlik xizmati (Davlat xavfsizligi xizmatimi yoki davlat tarkibidagi xavfsizlik xizmatimi?), degan mazmunlarning anglashilishi sintaktik omonimiya, ya'ni **omonim — nominativlarning** yuzaga kelishiga yo'l ochadi.

Biz bir vaqtning o'zida bir necha dominantaga bo'ysunuvchi, ya'ni ma'noda har xillikni aks ettiruvchi, aniqrog'i, o'ziga xos semantik strukturaga ega bo'lgan mazmunan sintaktik noaniq gaplarni **omonim — predikatlar** tushunchasi ostida qaraymiz. Masalan:

Uni ishdan bo'shatishdi (**Uni egallab turgan ishdan, lavozimidan bo'shatishdimi** yoki **Uni bajarishi tayinlangan ishni bajarishdan bo'shatishdimi** (xalos etishdimi?).

U bugun ko'rikdan o'tgani bordi (**U tanlovdan o'tgani bordimi** yoki **U bemor sifatida shifokor ko'rigidan o'tgani bordimi?**) kabi.

O'zbek tilida omonim — predikatlarning xilma-xil turlari mavjud. Asos qilib olingan, sintaktik omonimlarni chegaralash prinsiplaridan kelib chiqib, sintaktik noaniq gaplar — sintonimlarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. O'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan sintaktik noaniq gaplar.
2. Semantik jihatdan sintaktik noaniq gaplar.
3. Grammatik jihatdan sintaktik noaniq gaplar.
4. Pozitsion sintaktik noaniq gaplar.

I. O'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan sintaktik noaniq gaplar

Bunday hollarda qoidaga ko'ra, ifodadagi noaniqlik, gap tarkibidagi omonimlashuvchi komponentlar bilan bog'liq holda o'zida quyidagilarni namoyon etadi:

1. Sof sintaktik omonimlar, bunday sintonimlar gap tarkibidagi muayyan sintaktik sabablar, xususan, ifodada so'zlarning inversiya holatiga o'tishi, gaplarning nutq oqimida turli sintagmalarga ajratilishi, shuningdek, ifoda modelining omonimligi asosida yuzaga keladi. Masalan:

20-noyabr kuni xususiy shifoxona "Shifo nurga" tashrif buyurgan bemorga ko'rsatilgan xizmat bo'yicha protokol tuzildi, fizioterapiya chet el valyutasida (Kun uz. O'zbekiston yangiliklari).

Ushbu gapdagi **chet el valyutasida** birikmasi bemorga ko'rsatilgan **xizmat xorijiy valyutadami** yoki faqat **fizioterapiya muolajasi xorijiy valyutada amalga oshadimi**, degan mazmundagi noaniqlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

2. Morfologik-sintaktik omonimiya. Bunday sintonimlar gap tarkibidagi morfologik omonimlarning mavjudligi, ya'ni bir yoki boshqa so'z turkumlariga taalluqli grammatik ifodalar, ularning talaffuzi, shakllanishi yoki yozilishida teng kelishi asnosida yoki frazaning nutqiy ifoda jarayonida ikki xil sintagmalarga ajratilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan:

Eshik ochilib, besh bolali ayol kirib keldi. Ushbu gapda morfologik omonimiya **-li** (sifat yasovchi) va **-lik** (joy oti yasovchi) affikslari o'rtasida kuzatilishi mumkin (*Beshbola Farg'ona viloyatida joylashgan joy nomi*).

Yoki *Eshik ochilib /besh bolali/ ayol kirib keldi (bir ayol) // Eshik ochilib besh/ bolali ayol / kirib keldi.* Tarzida sintagmalarga ajratilishi ham sintaktik noaniqliklarga yo'l ochadi.

3. Paradigmatik — sintaktik omonimlar. Bunday omonimlar ifodada bir so'zning u yoki bu shakli yoki muayyan paradigmadagi kuzatiluvchi va tahmin etiladigan mazmun — dominantaga birlashishi asosida yuzaga keladi. Masalan:

Bugun bemor cho'zdirgani keldi // kasallik varaqasini cho'zdirgani keldi // oyoq bo'g'inlarini jarrohlik amaliyoti bilan cho'zdirgani keldi kabi.

II Semantik jihatdan sintaktik noaniq gaplar

Sintaktik noaniq gaplar — sintonimlarni semantik tasnif qilish asosida aksariyat sintaktik omonimlarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Masalan:

1. Nutqiy ifodada mazmuning tinglovchi tomonidan qabul qilinishiga ko'ra mantiqiy ifodadan yiroq bo'lgan, biroq anglashilgan xato mazmunni uning semantik komponentlari bilan tuzatish mumkin bo'lgan sintonimlar.

Masalan, deyarli ko'p holatlarda, biror gapni yoki matnini shunchaki ko'z yugurtirib o'qiganda gap komponenti semantikasiga e'tibor qaratmaymiz. Buyuk yozuvchi Abdulla Qahhor yosh yozuvchilarning so'z tanlash masalasiga jiddiy e'tibor berib, matnda qo'llangan so'zlarni keng tahlil qiladi. Xususan, yozuvchi Ma'ruf Hakimning "Qahramonning o'limi" nomli asarini tahlilga tortib, quyidagi jumalardagi noaniqliklarni jiddiy tanqidga oladi.

"O'sha yerdan bomba bilan hujum qilishni buyurdi", "Men o'zim ham bombadan bir juftini hadya qilib..." "Gum, qars, bux (!) degan bomba tovushlari eshitildi. "Beliga qistirib olgan bir juft bombasini..." "Beliga qistirgan bombaning bir juftini olib ko'chaga uloqtirdi", "Botir beliga qator beshta bomba qistirib....", "Botir bomba bilan yana besh-oltitasini osmonga uchirdi", "Qo'lida bomba ushlagani holda ko'chaga yugurdi", "Bosmachilarga ustma-ust ikki bomba otdi" va h. k. (9).

E'tibor qaratisa, asardan olingan ushbu gaplarning hammasida sintaktik noaniqlik quzatiladi. Qahhor, tahlilida davom etib, yozuvchining bomba va granataning farqiga yetmasligini tanqidga oladi va "adabiyotda yolg'onning katta-kichigi bo'lmaydi, hammasi bab-baravar yolg'on", deya ta'kidlaydi (9). Gap yoki matn tarkibidagi bunday sintaktik noaniqliklar sintonimlarni semantik tahlil qilish prinsipi orqaligina aniqlash mumkin bo'ladi.

2. Ikki dominantada o'rtasida omonimlashuvchi elementning o'zaro bog'liqligi asosida tahmin etilishi mumkin bo'lgan mazmun sifatida qabul qilinadigan konstruksiyalar. Masalan:

Buyuk Britaniyalik yuqori mehmonni kutib olish uchun shahar hokimi namoyondalari yetib kelishdi gapidagi **Buyuk Britaniyalik birikmasi** gap tarkibidagi "mehmon" so'zi hamda "shahar hokimi" birikmasiga mantiqan va mazmunan bog'lanishi mumkin. Ushbu bog'lanishlar esa, sintaktik omonimlarini yuzaga keltiradi.

III Grammatik jihatdan sintaktik noaniq gaplar

Tilda bir-biridan grammatik xususiyatlari bilan farqlanuvchi omonim gaplarni bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Dastlab, ularni ikki: **sodda** va **qo'shma gaplarga** ajratiladi. Qo'shma gaplarning bunday ko'rinishi, asosan, ergashgan konstruksiyalarda ko'p kuzatiladi. O'z navbatida, sodda omonimlik xarakteridagi

gaplarni turli modellar ko‘rinishidagi yana bir qancha guruhlarga: **aniqlovchili, qiyos, sabab oborotli, otning turli kelishik shakllarida ifodalanuvchi konstruksiyalarga**, shuningdek, **bir bo‘lakli konstruksiyalarga** ajratish mumkin. Sintaktik omonimlarni bunday turlarga ajratish, nazarimizda, turli tipdagi sintaktik noaniqliklarning ifodalanish chastotasini aniqlashda o‘ta muhim sanaladi.

IV Pozitsion sintaktik noaniq gaplar

Garchi istalgan sintaktik noaniq gaplar grammatik jihatdan kamida ikki ifoda elementi bilan bog‘langan komponentlardan tashkil topishiga qaramay, barcha turdagi sintonimlarni gap tarkibidagi omonimlashuvchi elementi qaysi pozitsiyada turganligidan kelib chiqib, ularni yana **3 turga** ajratishimiz mumkin. Agar biz tahminan gap tarkibida bir necha so‘z yoki so‘z birikmalarini umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan komponentni **X** simvoli bilan, u bilan sintaktik munosabatga kirishuvchi elementlarni **A** va **V** deb belgilaydigan bo‘lsak, bu o‘rinda omonim gaplarning uch tipini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan: 1) **X A V**, ko‘rinishida mazmun jihatidan ikkiplanli komponent **X prepozitsiya**; 2) **A X V**, ko‘rinishida, **X interpozitsiyada** holatida; 3) **A V X** ko‘rinishida esa, omonimlashtiruvchi element **postpozitsiya** holatida bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Istalgan mazmunan yanglish, noaniq bo‘lgan gap yuqoridagi belgilangan modellardan biriga tushadi.

Masalan: **A X V** — *Tavsiya etilgan kitob qiziq*. Mazkur misolda, **aniqlovchi** va **aniqlanmish** o‘rning almashinishi sintaktik omonimiyaga yo‘l ochgan. Yoki

Dunyo tashvishlaridan to‘yib ketsangiz shularni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o‘ylab, taskin topasiz.

X A V — *Mehmonxona xizmatchisi, katta qulog‘ida osilgan baldoq // Mehmonxona xizmatchisi (X) katta qulog‘ida (A) osilgan baldoq (V).*

Bunday modellar o‘zbek adabiy tilida deyarli kam uchraydi. Ular faqatgina badiiy adabiyotda, muayyan maqsadni birinchi planga ko‘tarish maqsadida yozuvchi tomonidan yaratiladigan uslubiy vosita sifatida ko‘rinishi mumkin.

A X V — *Qishloq aholisining ko‘zlari yonardi bir necha yil ketma-ket mehr berib parvarishlagan nihollari katta manzarali darxtga aylanganidan // Qishloq aholisining ko‘zlari yonardi (A) bir necha yil ketma-ket (X) mehr berib parvarishlagan nihollari (V) katta manzarali darxtga aylanganidan.*

A V X — *Ikki sopol idish qopqoqlari bilan noyob nusxadagi arxeologik qazilmalar vaqtida topildi...// Ikki sopol idish (A) qopqoqlari bilan (V) noyob nusxadagi (X) arxeologik qazilmalar vaqtida topildi...*

Sintaktik noaniqliklarni aniqlashda bunday pozitsion tasnif prinsipi yordamida muayyan yozuvchining til birliklarini poetik atuallashtirishdagi o‘ziga xos jihatlari va uning tilidagi individualligini aniqlash imkonini beradi. Ba‘zan gaplarni matndan uzib olganda ham muayyan sintaktik noaniqliklar kuzatiladi. Lekin

bunday hollarda matn boshidagi yoki keyingi gaplar mazmunining dominantlashishi jumla oxiri yoki boshidagi gaplar yordamida aniqlanadi.

Kuzatuvlarga ko'ra, sintaktik omonimiya hodisasini ko'rib chiqishga harakat qilgan ko'pchilik zamonaviy tilshunoslar, sintaktik omonimlar tipini belgilashda A.V.Gladkin (12) tomonidan taklif etilgan: **a) belgilangan; b) yo'naltirilgan hamda v) tarkibli — konstituyent omonimiya** deb belgilangan tasnifga tayanadilar.

Uning tasnifiga ko'ra, turli interpretatsiya (belgi)lar natijasida yuzaga keladigan sintaktik omonimlarning turi **belgili omonimiya**. Omonimiyaning mazkur turi quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

1) turli belgi, ya'ni nutqiy interpretatsiyaga bog'liq tobe komponent — dominanta juftligi mavjud bo'lishiga qaramay, so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik mazmuni turlicha talqin etiladi. Masalan:

Chiroqchi tumanida ayiq ta'qibi omadsizlik bilan tugadi gapida **a) subyektiv bog'liqlik: ayiq kimnidir ta'qib qilgan: b) obyektiv bog'liqlik: kimdir ayiqni ta'qib qilgan;**

2) gap tarkibidagi so'z shaklining o'zgarish tomonidan turlicha interpretatsiyalanishi asosida gap mazmunining o'zgarishi. Masalan:

U qoida yod olmagan — yo **yo'l-harakati qoidasini** yoki **grammatik qoidalarni** yo **matematik qoidalarni** va hokazo;

3) bir vaqtning o'zida omonimiya shakllari (formalari) va ular o'rtasidagi bog'lanish tiplari: *Ahmad xabari — adresat bog'liqligi (kinga?)* va subyektiv bog'liqlik (**kimning? kinga?**) kabi.

Bir strukturadan ikkinchi strukturaga o'tish jarayonida yuzaga keladigan omonimiya **yo'naltirilgan omonimiya** sanaladi. Bunda muayyan sintaktik konstruksiyaning turli ko'rinishdagi mazmunini yo'naltirilgan belgi asosida anglash mumkin bo'ladi.

Masalan, *U Umra safardan qaytdi. (Haj ziyorati uchun qilingan safardanmi yoki ishdan Umra shahriga belgilangan safardanmi).*

A. V. Gladkiy **konstituyent omonimiya** tushunchasi ostida gap tarkibidagi so'zlarning turli guruhlariga birlashishi asosida yuzaga keladigan noaniqliklarni nazarda tutadi (12). Masalan,

Davlat tadbirida taniqli ansambllar va xavaskor jamoalar ishtirok etishdi gapida faqat **ansambllar taniqlimi** yoki **ansabl** va **jamoalarni** degan noaniq mazmun kelib chiqadi. Bu esa sintaktik omonimiyani yuzaga kelishiga sabab bo'ladi...

Sintaktik omonimiya tasnifiga ko'ra qayd etilgan turlari, ba'zi o'rinlarda, o'zaro aralash — kombinatsiyalashgan holda kelishi ham kuzatiladi. Masalan,

Xabar kutilmaganda Toshkentdan birikmasida **belgili omonimiya** *xabar kutilmaganda* juftligida (**kinga?** yoki **kimdan?**) va **yo'naltirilgan omonimiya** (“**tegishlilik**”) shakli uchun *Toshkentdan xabar* jumlasini orqali anglashiladi. Omonimiyaning bunday kombinatsiyalashishi so'z birikmasini 4 xil usulda ajralishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, tilda noaniq konstruksiyalar bo'yicha yuqorida keltirilgan tasniflardan farqli shunday tiplarini ham ajratish

mumkinki, ular aynan bir sintaktik struktura, ya'ni bir xil so'z shakllari, ular o'rtasidagi bog'lanish ham deyarli bir xil bo'lishiga qaramay, sintaktik noaniqlikni namoyon etadi. Bunday ko'rinishdagi konstruksiyalarning mazmuni gapning ichki strukturasi orqali anglashiladi, shu sababli, ulardagi sintonimlik holati tilda **ichki-sintaktik omonimiya** deb nomlanadi (11). Masalan,

Anjumandagi chiqishdan avval yonimga hamkasbim keldi. Ushbu holatda ayni bir konstruksiya orqali ikki mazmun anglashilishi mumkin. Ya'ni: **Mening chiqish qilishimdan avval** yoki **Hamkasbimning chiqishidan avval...** kabi.

Xulosa. Umuman olganda, yuqorida ko'rib o'tilgan barcha tipologik tasniflarning asosida omonimik sintaktik konstruksiyalarni belgilashning turli prinsiplari yotadi.

Ehtimol, mazkur til hodisasi bo'yicha yana boshqa tilshunos olimlar tomonidan taqdim etilgan qator tasniflar bo'lishi ham mumkin. Biroq yuqoridagi tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, sintaktik omonimlarni chegaralashda aniq va umum tomonidan qabul qilingan yagona tasnif mavjud emas. Sababi mazkur muammo yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sintaktik sathdagi noaniqliklarni o'rganishdagi tilshunoslarning turli yondashuvida kelib chiqib turli tasniflar beriladi. Sintaktik noaniqliklarni mazkur aspektda o'rganish esa yangi hozirgi kun tilshunosligi uchun yangi xulosalarni berishi tayin. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, omonimiyani sintaktik aspektda o'rganish hozirgi kun tilshunoslik ilmida tadqiq etilishi zarur bo'lgan va yechimini kutayotgan o'ta dolzarb masala sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Малаховский Л. В. Теория лексической и грамматической омонимии. — Л.: Наука, 1990. — 240 с.
2. Маслов Ю. С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) // Вопросы теории и истории языка: сб. в честь проф. Б. А. Ларина. — Л.: Изд-во Ленинград. ун-та, 1963. — С. 128–202.
3. Балли Ш. Французская стилистика. — М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1961. — С. 70–90.
4. Ульман С. А. Семантические универсалии // Новое в лингвистике. — Вып. 5. — М.: Прогресс, 1970. — С. 250–299.
5. Сайидирахимова Н.С. Ўзбек тилида омонимия тилининг фонетик-фонологик, лексик-семантик ва синтактик сатҳ бирлиги сифатида// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. — Finland. — Pp. 234–239. Published: 22–02–2023. — URL: <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/452>.
6. Иорданская Л. Н. Синтаксическая омонимия в русском языке (с точки зрения автоматического анализа и синтеза) / Л. Н. Иорданская // Научно-тех. информация. — 1967. — № 5. — С. 9–17.
7. Сайидирахимова Н.С. Ўзбек тилида синтактик омонимлар (Когнитив аспект)// Ўзбекистонда хорижий тиллар. — Тошкент,

2020. — № 5 (34). — Б. 86–94. — URL: <https://journal.fledu.uz/ru/sintaksicheskie-omonimy-v-uzbekskom-ya/>
8. <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-hayot-qoshigi-1940>
9. Муравенко Е. В. Что такое синтаксическая омонимия // Лингвистика для всех. Летние лингвистические школы 2005 и 2006. — М.: Изд-во МЦНМО, 2010. — С. 154–159.
10. Лутфуллаева Д.Э., Сайидирахмова Н.С. Ўзбек тили синтактик омонимларининг шаклланиши хусусида // ТДПУ илмий хабарлари. — Тошкент, 2015. — № 2. — Б. 39–42.
11. Гладкий А. В. Синтаксические структуры естественного языка в автоматизированных системах общения. — М.: Наука, 2007. — 152 с.

References

1. Malaxovskiy L. V. *Teoriya leksicheskoy i grammaticheskoy omonimii* (Theory of lexical and grammatical homonymy), Leningrad: Nauka, 1990, 240 p.
2. Maslov Yu. S. *Voprosi teorii i istorii yazika: sb. v chest prof. B. A. Larina* (Questions of theory and history of language: collection in honor of Prof. B. A. Larin), Leningrad: Izd-vo Leningrad. un-ta, 1963, pp. 128-202.
3. Balli Sh. *Fransuzskaya stilistika* (French stylistics), Moscow, 1961, pp. 70-90.
4. Ulman S. A. *Semanticheskiye universalii, Novoye v lingvistike* (Semantic universals. New in linguistics), Issue 5, Moscow: Progress, 1970, pp. 250-299.
5. Sayidiraximova N.S.. *International Journal of Education, Social Sciyence & Humanitiyes. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786.* Finland, pp. 234-239, aviable at: <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/452>
6. Iordanskaya L. N. *Nauchno-tex. Informatsiya*, 1967, No. 5, pp. 9-17.
7. Sayidiraximova N.S. *O'zbekistonda xorijiy tillar*, Tashkent, 2020, No. 5 (34), pp. 86-94, aviable at: <https://journal.fledu.uz/ru/sintaksicheskie-omonimy-v-uzbekskom-ya/>
8. <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-hayot-qoshigi-1940>
9. Muravenko Ye. V. *Lingvistika dlya vsekh. Letniye lingvisticheskiye shkoli 2005 i 2006* (Linguistics for all. Summer linguistic schools 2005 and 2006), Moscow: Izd-vo MTSNMO, 2010, pp. 154-159.
10. Lutfullayeva D.E., Sayidiraximova N.S. *TDPU ilmiy xabarleri* Tashkent, 2015, No. 2, pp. 39-42.
11. Gladkiy A. V. *Sintaksicheskiye strukturi yestestvennogo yazika v avtomatizirovannix sistemax obsheniya* (Syntactic Structures of Natural Language in Automated Communication Systems), Moscow: Nauka, 2007, 152 p.